



## JAVOBGARLIK DAN VA JAZODAN OZOD QILISH

*Karimov Islom Umidullo o'g'li*

*IV Surxondaryo akademik litseyi Huquqshunoslik fanlari o'qituvchisi*

**Annotatsiya**

### **Kalit so'zlar:**

Jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikdan va jazodan ozod qilish jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonun chiqaruvchi ayrim holatlarda jinoyat sodir etgan shaxslarga jazo qo'llamasdan ham uning xulqini tuzatish mumkin yoki qonunda nazarda tutilgan shartlar mavjudligida ularga jazo qo'llamaslikni hamda javobgarlikdan ozod qilish qoidalarini belgilaydi.

Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi ikki omil mavjud bo'lganida yuzaga keladi:

birinchidan, shaxs jinoyat belgilarini ifodalagan qilmishni sodir etganida, shuningdek, uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun barcha asoslar mavjud bo'lganida;

ikkinchidan, mazkur shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun barcha qonuniy asos va shart-sharoitlar mavjud bo'lgan hollarda.

JK Umumiy qismining beshinchi bo'limida javobgarlikdan va jazodan ozod qilish instituti belgilangan bo'lib, u bir nechta turlardan tashkil topgan

Javobgarlikdan ozod qilish turlari (XII bob)	Jazodan ozod qilish turlari (XIII bob)
Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish (64-modda).	Jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (69-modda).



Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavflilagini yo‘qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (65-modda).	Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish (70-modda).
Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (66-modda).	Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (71-modda).
Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (66 <sup>1</sup> -modda).	Shartli hukm qilish (72-modda). Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (73-modda). Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish (74-modda).
Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish (67-modda).	Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilish (75-modda).
Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish (68-modda).	Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish (76-modda).

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, o‘z mazmuniga ko‘ra, jinoyat sodir etgan shaxsni huquqiy oqibatlardan ozod qilishdir. Shaxsni javobgarlikdan ozod qilish qilmishning huquqiy tabiatini o‘zgartirmaydi, chunki sodir etilgan qilmish hamisha jinoyat bo‘lib qolaveradi va yuridik mohiyati saqlanib qoladi.

Javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi deganda, jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab, qonunda belgilangan muddatlarning o‘tib ketganligi tushuniladi. Ushbu muddatlar o‘tib ketganidan keyin shaxs javobgarlikdan shartsiz ozod etilishi lozim. Muddatlarning o‘tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish uchun qonun chiqaruvchi tomonidan ayrim shartlar belgilangan. Moddada nazarda tutilgan muddatlar ushbu Kodeksning 150–157-moddalarida, 158-moddasining birinchi qismida, 159-moddasining uchinchi va to‘rtinchi qismlarida, 160, 161 va 2442- moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Javobgarlikka tortish muddatlari jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hukm qonuniy kuchga kirgan kungacha hisoblanadi.



Qonunda muddatlar o‘tishining ikki turi belgilangan:

- differensial (tabaqalashtirilgan) muddat;
- universal (umumiy) muddat.

Differensial muddatning o‘tib ketishi jinoyatlarning tasnifidan kelib chiqadi. Xususan, JK 64-moddasiga 1-qismiga muvofiq, agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab quyidagi muddatlar:

- ijtimoiy xavfliliği katta bo‘lmağan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – ikki yil;
- uncha og‘ir bo‘lmağan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – to‘rt yil;
- og‘ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – sakkiz yil;
- o‘ta og‘ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – o‘n to‘rt yil o‘tib ketgan bo‘lsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi.

Differensial muddatlarning o‘tishi uchun quyidagi shartlar nazarda tutilgan: birinchi sharti – jinoyat sodir etgan shaxsning tergov va suddan yashirinmasligi; ikkinchi sharti – og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan shaxs qonunda ko‘rsatilgan tabaqalashtirilgan muddat davomida qasddan yangi jinoya sodir etmaganligi.

Ushbu shartlarning buzilishi differensial muddat o‘tishining to‘xtatilishiga yoki uzilishiga olib keladi.

Universal muddat. JK 64-moddasining 5-qismida belgilangan qoidaga ko‘ra, agar ijtimoiy xavfi katta bo‘lmağan yoki uncha og‘ir bo‘lmağan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab o‘n yil, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etilgan kundan



boshlab yigirma besh yil o'tgan bo'lsa, shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

JK 64-moddasining 6-qismida muayyan toifadagi jinoyatlarga nisbatan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turini qo'llash bo'yicha qo'shimcha shartlar va cheklashlar nazarda tutilgan. Sodir etilgan jinoyat uchun qonunda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash nazarda tutilgan bo'lsa, javobgarlikka tortish muddatlarini qo'llash masalasini hal qilish jinoyat ishini ko'rib chiqayotgan sud ixtiyoriga beriladi.

Sud bunday holatda ikki xil xulosaga kelishi mumkin:

–agar sud javobgarlikka tortish muddatini qo'llashni lozim topsa, differential yoki universal muddatlarga ko'ra javobgarlikdan ozod etilishi lozim;

–agar sud javobgarlikka tortish muddatini qo'llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'mniga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanadi. Bunday holatda differential yoki universal muddatlar o'tganidan keyin umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash mumkin emas.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning JK 65-moddasida nazarda tutilgan ushbu turi shartsiz hisoblanadi, chunki u shaxsning ozod qilingandan keyingi xulqiga qandaydir shartlar qo'yish bilan bog'liq emas.

### Yodda tuting!

JKning 65-moddasida javobgarlikdan ozod qilishning ikki turi nazarda tutilgan, ya'ni:

sodir etilgan **qilmish** o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topilganligi (JK 64-modda 1-qism)

jinoyat sodir etgan **shaxs** ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan deb topilganligi (JK 64-modda 2-qism).

Qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati yo'qolganligi sababli javobgarlikdan ozod qilish asoslariga quyidagilar kiradi: a) sharoitning



o‘zgarganligi; b) qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati yo‘qolishiga olib kelganligi.

Sharoitning o‘zgarishi deganda, obyektiv voqelikdagi sodir etilgan jinoyatning yangi ijtimoiy sharoitlarda ijtimoiy xavfliligini yo‘qotishiga olib kelgan o‘zgarish tushuniladi.

65-moddaning 2-qismida faqat ikki holat birgalikda mavjud bo‘lganidagina javobgarlikdan ozod qilish mumkinligi nazarda tutilgan: a) jinoyat sodir etilganidan so‘ng sharoitning o‘zgarganligi; b) buning oqibatida jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfliliyi yo‘qolganligi.

Javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turiga nisbatan sharoitning o‘zgarishi deganda, aybdor shaxsni u jinoyat sodir etgunicha o‘rab turgan obyektiv voqelikda yuz bergen o‘zgarishlarni tushunish zarur. Ushbu o‘zgarishlar boshqa odamlar atrofidagi sharoitlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lishi shart emas, shuningdek, aybdor shaxsning o‘z ixtiyori bo‘yicha ham, uning istak-xohishidan tashqari ham yuz berishi mumkin.

Amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishda, shaxs xulq-atvorining ijobiy namoyon etilganligi va unga jazo yoki boshqa turdagи majburlov choralarini qo‘llashning shart emasligidan kelib chiqadi.

### Jinoyat kodeksidan

#### **66-modda. Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish**

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lman yoki uncha og‘ir bo‘lman jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergen va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida alohida ko‘rsatilgan hollarda, jinoyat sodir etgan shaxs o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinishi lozim.



Amalda pushaymon bo‘lish javobgarlikdan ozod qilishning asosi sifatida qabul qilinishi uchun quyidagi belgilar bo‘lishi lozim:

- shaxsning birinchi marta jinoyat sodir etishi;
- sodir etilgan jinoyat tasnifiga ko‘ra ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat bo‘lishi;
- shaxs aybini o‘z bo‘yniga olish to‘g‘risida ixtiyoriy arz qilganligi;
- aybdorning pushaymon bo‘lganligi;
- jinoyatni ochishda faol yordam berishi;
- kelib chiqqan oqibatni bartaraf qilganligi.

Javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi jinoyat sodir etgan shaxsning jabrlanuvchi bilan yarashgan bo‘lsa hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa shartlar mavjud bo‘lsa, unga javobgarlik belgilanmasligida ifodalanadi.

Amaldagi jinoyat qonuni normasiga muvofiq, yarashuv institutini qo‘llash uchun quyidagi shartlar bajarilgan bo‘lishi lozim:

- 1) sodir etilgan jinoiy qilmish JKning 661-moddasida nazarda tutilganligi;
- 2) jinoyat sodir etgan shaxsning, ya’ni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining aybiga iqror bo‘lganligi;
- 3) jabrlanuvchiga yetkazilgan zararning bartaraf qilinganligi;
- 4) jabrlanuvchi bilan gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ni yarashganligi, ya’ni jabrlanuvchining kechirganligi.

Ushbu shartlardan birining bajarilmasligi jinoyat ishi bo‘yicha yarashuv institutini qo‘llashni istisno etadi.



Amnistiya JKning 68-moddasida huquqiy tartibga solingan. Ushbu moddada jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Amnistiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, huquqiy tabiatiga ko‘ra, jinoyat huquqi institutiga kirmaydi, chunki O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 80-moddasining 10-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qiladi.

Jazoni ijro etish muddatining o‘tib ketganligi deganda, hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab, qonunda belgilangan muddatlarning o‘tib ketganligi tushuniladi. Ushbu muddatlar o‘tib ketganidan keyin shaxs jazodan shartsiz ozod etiladi.

JKning 150–157-moddalarida, 158-moddasining birinchi qismida, 159-moddasining uchinchi va to‘rtinchi qismlarida, 160, 161 va 2442- moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun jazoni ijro etish muddatli hisoblanmaydi, ya’ni ushbu jinoyatlar uchun hukm chiqarilgandan keyin qancha muddat o‘tganligidan qat’i nazar jazo ijro etilishi lozim.

Jinoyat huquqining insonparvarlik tamoyillaridan biri bu – shaxsga nisbatan jazo qo‘llamasdan ham uni tuzatish, jamiyatga qayta ijtimoiylashtirish imkonini berishdir. Shuning uchun javobgarlikdan va jazodan ozod qilish instituti jinoyat huquqining muhim elementlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Mazkur institut shaxsning qilgan jinoyatiga nisbatan javobgarlik yoki jazoning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatini, shuningdek, u holatlarda davlat tomonidan jazolash zarurati yo‘qligini ko‘rsatadi. Bu esa jinoyatga yondashuvda differensial vaadolatli qaror qabul qilish imkonini beradi.



Jinoyat kodeksida javobgarlikdan va jazodan ozod qilishning quyidagi asosiy turlari belgilangan:

- Ijtimoiy xavflilikning yo‘qolishi (JK 83-modda),
- Amalda pushaymon bo‘lish (JK 65-modda),
- Yarashish asosida ozod qilish (JK 66-modda),
- Jinoyat sodir etilganidan keyin ahvoli og‘irlashgan shaxsni ozod qilish,
- Muddatlarning o‘tib ketishi asosida ozod qilish, va boshqalar.

Mazkur normalarning qo‘llanishi bir qator shart va mezonlar asosida amalga oshiriladi: jinoyatning og‘irlik darajasi, shaxsning xulq-atvori, yetkazilgan zararning qoplanishi, jabrlanuvchining roziligi, ijtimoiy xavflilik darajasining o‘zgarishi va boshqalar.

Shuningdek, ushbu institutlar shaxsning ijobiy o‘zgarishini rag‘batlantirishga, jazolashdan ko‘ra tuzatishga, jabrlanuvchi bilan yarashuvga erishishga xizmat qiladi. Natijada, jinoyatga qarshi kurashda faqat repressiv choralar emas, balki tarbiyaviy va ijtimoiy yondashuvlar ham ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutlari jinoyat huquqining insonparvarlik,adolat va maqsadga muvofiqlik tamoyillarini amaliyotda ro‘yobga chiqaradi. Bu esa huquqiy tizimning faqat jazolovchi emas, balki ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalarni ham bajarishini ta’minlaydi. Mazkur institutlardan oqilona va qonuniy foydalanish jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksalishiga, jinoyatchilikni kamaytirishga va fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.



## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi IIV akademik litseylari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023 – 184b
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – asosiy normativ hujjat.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi – jinoyat ishlari yuritilishi tartibini belgilaydi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – jinoyat huquqining asosiy prinsiplari shu yerda belgilangan.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining plenum qarorlari
7. M. Rustambayev. "Jinoyat huquqi (Maxsus qism)" – jinoyat turlarining tahlili.